
ERKIN VOHIDOV SHE'RIYATIDA MILLIY RUHIYAT TASVIRI

Madinaxon Ro‘zimatova
Qo‘qon davlat universiteti

Gumanitar fanlar va tillar fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Erkin Vohidov ijodida milliy ruh, vatanparvarlik va milliy o‘zlik masalalarining badiiy ifodasi tahlil qilingan. Shoirning “O‘zbekim” qasidasi hamda boshqa she’rlari misolida xalqning tarixiy ildizlari, milliy qadriyatlari, erkinlik va adolatga intilishi yoritilgan. Erkin Vohidov ijodining o‘zbek xalqining milliy ongini, vatanparvarlik tuyg‘usini va tarixiy xotirasini shakllantirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Erkin Vohidov, milliy ruh, milliy o‘zlik, vatanparvarlik, “O‘zbekim” qasidasi, tarixiy xotira, milliy qadriyat, xalq, adolat, haqiqat, erkinlik, milliy ong, o‘zbek she’riyati.

Mohiyatan umuminsoniyatga daxldor bo‘lsa-da, adabiyot milliy shaklda namoyon bo‘ladi. O‘zida millatning ruhini ifodalaydi. Bu xususiyatlar she’riyatda, ayniqsa, yaqqolroq bo‘y ko‘rsatadi. Zamonlar almashinadi, tafakkur, taxayyul evriladi, she’riyatda surat - shakl o‘zgarib, yangilanib boradi. Biroq har qanday holda adabiyotning, she’riyatning darajasi ikki mezon – milliy ruh va mahoratga ko‘ra belgilanadi. Bugungi she’riyatimiz milliy ruhni saqlab qola bilgani hamda badiiy tasvir va uslub rang-barangligida katta miqyoslarga ko‘tarila olgani jihatidan jahondagi eng rivojlangan xalqlar poeziyasi bilan ham bo‘ylasha oladi. O‘zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Erkin Vohidov nazmiy merosi bu jihatdan, ayniqsa, alohida ahamiyatga ega. Shoir “O‘zbekim” qasidasini yozish orqali o‘ta murakkab va ziddiyatli bir zamonda beqiyos jasorat ko‘rsatdi, o‘zi mansub xalqning barhayot badiiy siymosini yaratdi. “Yoshlik devoni” bilan zamonamizga unutila boshlagan mumtoz aruzni olib kirdi, aruzga yangi ruh bag‘ishladi. “Donishqishloq latifalari” timsolida engil yumor vositasida millatga oyna tutdi. Bu oynada taraqqiyotga to‘siq bo‘layotgan illatlarni ro‘y-rost ko‘rsatdi. Komfirqa g‘oyalarining jarchisiga aylangan she’riyatga milliy ruhni olib kirish yo‘lida munosib xizmat qiladi.

Birinchidan, Erkin Vohidov she'rlari asosan milliy ruhda yozilgan bo'lib hozirgi kunda ham milliyligimizni kitobxonlarga yetkazib bera oladi Shuningdek ,xalqning kelib chiqishi, an'analari ko'p she'rlarda yoritilib o'tilgan. Misol uchun,"Obegim " qasidasini oladigan bo'lsak:

Tarixingdir ming asrlar
Ichra pinhon, O'zbekim .
Senga tengdosh Pomiru,
Oqsoch Tiyonshon, o'zbekim [1; 58-59].

Qasidada, milliy ruhni kuchli ifodalash uchun O'zbekistonning tarixiy va madaniy yodgorliklari, xalqning mustahkam xarakteri va erkinligi tasvirlanadi. "Pinhon o'zbekim" va "tendosh Pomiru" so'zlari orqali xalqning qadimiy ildizlari, o'zbekning tarixiy o'tmishi va uning ma'naviy boyliklari ko'rsatilgan. "Oqsoch Tiyoshon o'zbekim" esa yurtning go'zalligi, uning tabiati va xalqining qadrini anglatadi. Shu bilan birga, shoirmiz yana ko'p she'rlada millatimizning milliyligi, jasoratni, ochib bergan .

Xalqimga qadringni bil desam agar,
Kurash, haqni oshkor qil desam agar,
Bu qutqu atalsa davlatga zarar,
Qancha azob bo'lsa tortganim bo'lsin! [1; 100].

"Milliy ruh va vatanparvarlik – har bir xalqning eng asosiy qadriyatlaridan biridir. Bu she'r esa o'zbek xalqining haqqoniylik va matonat ruhini, zulmga qarshi kurashini yuksak poetik shaklda ifodalaydi." Shoir adolat va haqiqat yo'lida jonini xavf ostiga qo'yishga tayyorligini bildiradi, bu esa millat uchun fidoyilik va vatanparvarlik timsoli hisoblanadi. Shuningdek, she'rda xalqni uyg'otish va haqqoniylikka chorlovchi chaqiriq bor: "Xalqimga qadringni bil desam agar, Kurash, haqni oshkor qil desam agar". Bu misralar orqali muallifning milliy ong, vatanparvarlik va haqiqatni aytish ruhiyatini ko'rishimiz mumkin. Umuman olganda, she'r milliy qadr-qimmat, vatanparvarlik va adolatga intilish ruhini yuksak tarzda targ'ib qiladi, shuningdek, xalqning matonati va erkinlikka bo'lgan intilishining timsoli sifatida namoyon bo'ladi [3;49-55].

O'zbek she'riyatida shoirlarning milliy ruhni ifodalashdagi roli beqiyosdir.

Shoirilar nafaqat go‘zal so‘z san‘ati, balki xalqning og‘riqi, siyosiy haqiqat va milliy ongni uyg‘otuvchi vosita sifatida xizmat qilgan. Masalan, quyidagi misralar buni yaqqol ko‘rsatadi:

*Demang, shoir tinib ketdi,
Siyosatga inib ketdi.
Va yo aytmangki, mo‘rt toldek,
Shamollarda sinib ketdi.
Siz, ey lutf bahrida g‘avvos,
U sizni sog‘inib ketdi.
Demang, shoir jimib ketdi,
G‘azal yozmay tinib ketdi.
Tinib ketsa, bilingizki,
Yog‘och otga minib ketdi [4; 168].*

Ushu misrani tahlil qilsak: “Demang, shoir tinib ketdi, Siyosatga inib ketdi.” Bu misralarda shoirning jimligi ijoddan voz kechish emas, balki jamiyat va siyosiy jarayonlarga befarq bo‘lmay, haqiqat tomon og‘ish ekanligi anglatiladi. Shoir sukut orqali ham fikr bildiradi. “Va yo aytmangki, mo‘rt toldek, Shamollarda sinib ketdi.” Bu yerda shoirning ruhiy sinishi inkor etiladi. U mo‘rt emas, aksincha, sinovlar qarshisida bardoshli shaxs sifatida tasvirlanadi. “Demang, shoir jimib ketdi, G‘azal yozmay tinib ketdi.” Shoir g‘azal yozmayotgani uning so‘zi tugaganini anglatmaydi. Ba‘zan shoirning sukuti ham eng baland hayqiriq bo‘lishi mumkin. “Tinib ketsa, bilingizki, Yog‘och otga minib ketdi.” Bu ramziy misra shoirning kurash yo‘liga chiqqanini bildiradi. “Yog‘och ot” – “tobut” ma’nosida kelgan bo‘lib shoirilarimiz o‘z yurtlarini g‘ururini, milliyligini himoya qilib haqiqat yo‘lida jonini fido qilgan inson sifatida ta’svirlangan. Misol uchun, yurtimizda shunday shoir va shoiralar bor. Misol tariqasida, shoir va shoiralarimiz hayotida katta to‘siqlarga uchragan: Halima Xudoyberdiyeva “Muqaddas ayol”, “Sadoqat”, “Ona xalqim” kabi she’riy to‘plamlarida ayol qismati, vatan va milliy g‘ururni dadil kuylagan. U duch kelgan tanqid va bosimlar shoiraning sinmaganini, balki ruhiy bardoshini ko‘rsatadi. Abdulla Abdulla Qodiriy “O‘tkan kunlar” va “Mehrobdan chayon” romanlari orqali xalqning ijtimoiy og‘riqlarini ochib bergan. Haqiqatni yozgani sabab qatag‘onga uchragan.

O'sha davrda o'zimizning milliyligimizni himoya qilib haqiqatni yozgani uchun qatog'on qurboni bo'lgan shoirlarmiz ko'p. Abdullar Abdulla Qodiriy shunday degandilar: "Agar shoir haqiqatni yozmasa u shoir emas", deb bejiz aytishmagan.

Erkin Vohidov ijodida Vatan va millat muhabbati markaziy o'rinni egallaydi. Shoir qayerga bormasin, qalbida ona yurt sog'inchi va milliy g'ururini asrab yashagan. "Arazat cho'qqisi" she'rida u moviy osmon, tongda quyosh nuriga chulg'angan zamin, dengizlar ortidagi oq dalalar, Amu va Sir kabi daryolarni yodga oladi. Bu manzaralar shoir uchun faqat tabiat tasviri emas, balki ona diyorga bo'lgan cheksiz muhabbat ifodasidir. Arman qizi Azarushning vafoti, tog'lar orasida qolgan yurt manzaralari ham shoir xotirasida o'chmas iz qoldiradi. Bokuda Fuzuliy haykali qarshisida turganida ham, Kanadada safarda bo'lganida ham u o'zini xalqidan ajratmaydi. Er sharining qaysi nuqtasida bo'lmasin, Toshkent vaqti bilan yashashi shoirning millatga sadoqatini yaqqol ko'rsatadi. She'riyatda milliy ruh ifodasi eng muhim mezonlardan biridir. Millatning mavjudligi va yashovchanligi avvalo ona tiliga bo'lgan muhabbat bilan belgilanadi. Bu g'oya Erkin Vohidov ijodida alohida o'rin tutadi. Zamondoshi Abdulla Oripov "Ona tilimga" she'rida bulbul va to'ti obrazlari orqali til masalasini yoritgan bo'lsa, Erkin Vohidov "Ona tilim o'lmaydi" she'rida bu fikrni yanada qat'iy va falsafiy tarzda davom ettiradi. Shoir Navoiyning g'oyalariga tayanib, Pushkin, Dante, Shekspir, Bayron, Firdavsiy, Balzak, Tagor, Hayyom, Beranje, Lorka va Fuzuliy kabi buyuk ijodkorlar misolida milliy tilning abadiyligini ta'kidlaydi.

Yurtim!

Ilhomimga sarchashma o'zing ,

Birdek aziz menga yozing ham kuzing.

Bu kun bahoringa she'r aytmoqchiman ,

Vatanim, muborak bo'lsin Navro'zing [2; 143-144].

Donolarimiz shunday deyishgandi, "Yurt – har bir inson uchun eng aziz maskan, ilhom manbai", deb bejiz aytishmagan. Ushbu she'rda "Yurtim! Ilhomimga sarchashma o'zing" degan so'zlar vatanimizga bo'lgan chuqur sevgini va unga bo'lgan hurmatni ifodalaydi. Har birimizning qalbimizdagi ilhom, ijod va ruhiy quvvatimiz yurtimizdan boshlanadi. She'rdagi "Birdak aziz menga yozing ham kuzing" satri tabiatning go'zalligi va fasllarning ruhiyatga ta'sirini ko'rsatadi. Yoz va kuz –

insonning qalbini uygʻotadigan, ruhini yangilaydigan va ilhom bagʻishlaydigan fasllar. Navroʻz bayrami yurtimizning eng qadimiy va muqaddas anʼalaridan biridir. Har bahor kelishi bilan tabiat uygʻonadi, daraxtlar yashillashadi, qushlar kuylaydi. Bu bayram inson qalbini yangilanish, quvonch va umid bilan toʻldiradi. “Bukun bahoringga sheʼr aytmoqchiman, Vatanim, muborak boʻlsin Navroʻzing” degan satrlar esa bayramning ruhini va milliy qadriyatlarimizdagi ahamiyatini bildiradi.

Erkin Vohidov hayotiy zarurat taqozosi boʻlgan ushbu muammoni koʻtarish bilangina cheklanmadi. Oʻz ijodida ona tilimizning butun jozibasini, beqiyos ifoda imkoniyatini bor boʻy-basti bilan koʻrsata oldi. Ona tilining taqdiri uchun kuyingan shoir bu boradagi armonlari va iztiroblarini ukrain shoiriga bagʻishlangan sheʼrida quyidagicha badiiy talqin etadi:

*Ona tiling uchun gʻam chekib dilda
Nola qilsang, koʻkka uchar faryodim.
Yetmish yetti pushtim soʻzlagan tilda
Soʻzlarmikin yana yetti avlodim [4; 68].*

Tabiiyki, shoir yuragini oʻrtagan bu armon oʻtmish zamonga oid. Toʻgʻri, bugun ona tilimiz ravnaqi uchun barcha imkoniyat bor. Biroq bu imkoniyatlardan qay darajada foydalanilayotir – shoirni ana shu muammo oʻylantiradi. Uning “Soʻz latofati” kitobi ona tiliga boʻlgan muhabbatning beqiyos namunasi. Bu kitobida ijodkor tilimiz haqida millat ruhiyatiga yot, tushunarsiz ajnabiy terminlar, oʻlik soʻz va iboralar orqali emas, chinakam milliy ruh, milliy atama va tushunchalar asosida fikr yuritish, ilmiy-ijodiy oʻylarni yurakni titratadigan tarzda oʻzbekcha ifoda etish mumkin ekanini amalda namoyon etdi. Ona tilimizdan olingan aniq misollar tahlili asosida nechogʻlik qadimiy tarixiy ildizlarga, boy ifoda imkoniyatiga ega til egalari ekanimizni yana bir karra koʻngillarga muhrladi. Milliy tilning jonli vujud ekanidan, unga zaxa etkazish ogʻir gunoh boʻlishidan barchamizni yana bir marta ogoh etdi. Shoirning ona yurt vasfiga bagʻishlangan sheʼrlari ham milliy ruh bilan sugʻorilgan. Ijodkor shunday bir Vatan qurmoqni istaydiki, unda inson ozod qush kabi erkin boʻlsin. Bu Vatanning bayrogʻi – insof, tugʻi – sarhad, muhri – mehr boʻlmogʻini orzu qiladi shoir. Shoirning mana bu misralarida esa, oʻzbekka xos chinakam samimiyat, rostakam milliy ruh mujassam:

*Istasang toza ko'nglinga qo'nmasin zarra g'ubor ,
Pok so'zu
Pok ish va pok dil ,
Pok xayol bo'lmoq kerak [4; 35-36].*

Xalqimizning bir necha ming yillik maqol va matallaridan, hazrat Alisher Navoiy “Xamsa”sidan bizga ma'lumki, insonning nainki “ko'ngli poku ham ko'zi pok”, balki “tili poku so'zi poku o'zi pok” bo'lishi uning fazilati ulug' ekanidan dalolat beradi. Erkin Vohidov ana shu haqiqatni bugungi zamon o'quvchisiga mos tarzda, o'ziga xos talqin etadi. Ko'ngilni gunohlar zangidan qanday tozalash mumkin? - Ishq orqali! Odamzod vujudiga sihat bag'ishlaydigan kuch nima? - Ishq zavqu dardi! Mumtoz she'riyatimizga xos an'anani munosib davom ettira olgan Erkin Vohidov buyuk salaflari kabi bu savolga ayni javobni beradi. Biroq fikrning badiiy ifodasi o'zgacha, poetik talqin ohorli:

*Jismu jonimga desang begona bo'lsin xastalik,
Ishq zavqu
dardi birlan xastahol bo'lmoq kerak [4;338].*

Shoirning mahorati shundaki, so'zni o'zi istagan yo'riqqa yurgiza oladi. So'zlardagi zohiriy shakl uyg'unligidan san'atkorona istifoda eta biladi. So'zlar intizomli askarlar singari ijodkor amriga so'zsiz bo'ysunadi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Qahramoni, Erkin Vohidov shunday degandilar: “Insonni eng buyuk fazilati – muhimni nomuhimdan ajratish, deb bilaman. Hozir biz ijodkorlar uchun eng muhimi – xalqning ichiga kirish, uning ko'nglini nurli ishlar tomon yo'naltirishdir. Bugun biz uchun dunyoga barcha eshiklar keng ochildi. Ammo, bahorda daryodan birinchi bo'lib loyqa suv, xas-xashak oqqani kabi, tashqi muhitdan dastlab yaxshi narsalar kelmaydi. Masalan, Rossiya istilosidan keyin birinchi nima kirib keldi? Pushkinning she'ri, Tolstoyning romani emas, aroq, marjalar, islovotxonalar. Biz intilayotgan jahon hamjamiyatida ham barcha ishlar, ayniqsa, ma'naviyat bobida ko'ngildagidek emas: buzuqlikni targ'ib etuvchi kinolar, giyohvandlik, ekstremizm, jinoyatchilik, terrorizm. Bizning vazifamiz yoshlarimizni bunday balolar ta'siridan asrab-avaylab, "zilol suvlar"ga yetkazib olishdan iborat.” Albatta, shoirimiz shunda xalqni, o'zligini, milliyligini saqlab qolish uchun shunday

soʻzlarni aytgan desak adashmagan boʻlamiz. Haqiqatan, muayyan xalq sheʼriyatining boʻy-bastini, oʻziga xosligini belgilovchi bosh mezon aynan milliy ruhdur. Erkin Vohidov milliy ruhning betakror ifodasi bilan adabiyotimiz ravnaqiga beqiyos hissa qoʻshdi. Shoir nazmiy merosi isteʼdodlarning bugungi va kelajak avlodlari uchun benazir ijodiy maktab oʻlaroq bundan keyin ham millat adabiy-estetik tafakkuri rivojiga xizmat qilishiga shubha qilmaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Vohidov E. Soʻz latofati. Toshkent: Oʻzbekiston, 2014. – 150 b.
2. “Erkin Vohidov ijodida turkiy xalqlar madaniyatida tutgan oʻrni. https://tsuull.uz/sites/default/files/erkin_vohidov_konferensiyasi_materiallari_20_06_22_ozmu_stranicy_1.pdf
3. Jabborov N. Erkin Vohidov sheʼriyatida milliy ruhiyat tasviri. file:///C:/Users/User/Downloads/7-1.pdf
4. Hojmatov M. Rauf Parfi sheʼriyatida milliy ruhiyat tasviri tadqiq qilinadi. <https://cdn.uz.uz/2024/01/29/06/17/nXky1FXGzST2FkC8VUZY3n9B6GGs86VK.pdf>
5. Mahmudova, S. A. (2019). The concept of psychologism in the literature, techniques and methods of psychological image. Научные вести, (10), 46-50.
6. Tursunaliyeva, M. A. (2025). OGHIYNING “GULSHANI DAVLAT” ASARIDA HAMD VA NAʼT QISMLARINI BERILISHI. Oriental Journal of Philology, 5(3), 618-627.
7. TURSUNALIYEVA, M. (2025). OGHIYNING “ZUBDAT UT-TAVORIX” ASARIDA HAMD MATNIDAGI SOʻZLAR JILVASI. «ACTA NUUZ», 1(1.7), 310-312.
8. Abdullayeva, O. O. Q., & Abdullayeva, M. O. Q. (2021). QALBGA YAQIN SATRLAR. Scientific progress, 2(3), 138-142.
9. Хужаев, М. И. (2020). Bashkir turkish studies. epra International Journal of Research & Development Development Monthly Peer Reviewed & Indexed International Online, 5(8).